



THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF THE JUYBORI KHOJAS IN THE DIPLOMATIC RELATIONS BETWEEN THE BUKHARA KHANATE AND INDIA

Azizbek Karimov

PhD Student, Namangan State Pedagogical Institute

Science ID: MNM-0826-0039

E-mail: karimovazizbek629@gmail.com

Namangan, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Juybari Khojas, Bukhara Khanate, Mughal Empire, India, diplomatic relations, embassy, Imam Quli Khan, Akbar, Jahangir, “Matlab al-Talibin”.

Received: 04.09.26

Accepted: 05.09.26

Published: 06.09.26

Abstract: This article examines the role of the Juybari Khoja dynasty in diplomatic relations between the Bukhara Khanate and Mughal India in the 16th–17th centuries. Drawing on the primary source “Matlab al-Talibin,” it demonstrates that the Juybari Khojas functioned not only as religious authorities but also as political intermediaries and economic actors who strengthened ties between the two states.

BUXORO XONLIGI VA HINDISTON DIPLOMATIK MUNOSABATLARIDA JO‘YBOR XO‘JALARINING O‘RNI VA AHAMIYATI

Azizbek Karimov

Namangan davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

Science ID: MNM-0826-0039

E-mail: karimovazizbek629@gmail.com

Namangan, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: Jo‘ybor xo‘jalari, Buxoro xonligi, Boburiylar, Hindiston, diplomatik munosabatlar, elchilik, Imomqulixon, Akbar, Jahongir, “Matlab ut-tolibin”.

Annotatsiya: Mazkur maqolada XVI–XVII asrlarda Buxoro xonligi bilan Boburiylar Hindistoni o‘rtasidagi diplomatik munosabatlarda Jo‘ybor xo‘jalari sulolasining tutgan o‘rni tahlil qilinadi. “Matlab ut-tolibin” asari misolida Jo‘ybor xo‘jalarining nafaqat diniy-ma’naviy obro‘si, balki siyosiy vositachi va iqtisodiy subyekt sifatida ham ikki davlat o‘rtasidagi aloqalarni mustahkamlashda muhim rol o‘ynagani ko‘rsatiladi.

РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ДЖУЙБОРСКИХ ХОДЖЕЙ В ДИПЛОМАТИЧЕСКИХ ОТНОШЕНИЯХ БУХАРСКОГО ХАНСТВА И ИНДИИ

Азизбек Каримов

Докторант (PhD) Наманганского государственного педагогического института

Science ID: MNM-0826-0039

E-mail: karimovazizbek629@gmail.com

Наманган, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: джуйбарские ходжи, Бухарское ханство, Великие Моголы, Индия, дипломатические отношения, посольство, Имамкули-хан, Акбар, Джахангир, «Матлаб ут-толибин».

Аннотация: В статье анализируется роль династии джуйбарских ходжей в дипломатических отношениях между Бухарским ханством и империей Великих Моголов в XVI–XVII вв. На основе источника «Матлаб ут-толибин» показано, что джуйбарские ходжи выступали не только религиозным авторитетом, но и политическим посредником и экономическим субъектом, способствовавшим укреплению связей между двумя государствами.

Kirish. O'rta asrlar Markaziy Osiyo va Hindiston munosabatlari tarixida davlatlararo rasmiy elchilik aloqalari bilan bir qatorda, diniy-ma'naviy avtoritetga ega bo'lgan sulolalar, xususan, Naqshbandiya tariqati shayxlari muhim o'rin tutgan. Buxoro xonligida XVI asrning ikkinchi yarmidan boshlab siyosiy, iqtisodiy va diniy hayotda ustuvor mavqega ega bo'lgan Jo'ybor xo'jalari sulolasi shular jumlasidandir.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, Buxoro xonligi va Boburiylar Hindistoni o'rtasidagi diplomatik munosabatlar tarixshunosligida asosiy e'tibor rasmiy xon elchiliklariga qaratilgan bo'lib, nodavlat subyektlar — diniy-xo'jalik sulolalarining vositachilik roli yetarlicha yoritilmagan. G'arb tarixshunosligida ham Buxoro xonligining Hindiston bilan diplomatik-tijorat aloqalari alohida o'rganilgan bo'lsa-da, bu tadqiqotlarda Jo'ybor xo'jalari faoliyati asosiy tadqiqot obyekti sifatida ko'rilmagan. Mazkur maqolada Muhammad Tolib ibn Tojiddin Hasanxoja qalamiga mansub "Matlab ut-tolibin" asari asosida Jo'ybor xo'jalarining Buxoro–Hindiston aloqalaridagi o'rni diniy-siyosiy, diplomatik, iqtisodiy va madaniy yo'nalishlar bo'yicha tahlil qilinadi.

Jo'ybor xo'jalari sulolasining asoschisi xo'ja Islom (vafoti 1563) naqshbandiya tariqatining Ahroriya tarmog'iga mansub bo'lib, Buxoro atrofidagi Jo'ybor mavzeida yirik vaqf mulklariga ega bo'lgan. Uning izdoshlari avloddan-avlodga o'tib kelayotgan vaqf mulklarini boshqarish huquqini saqlab qolish bilan birga, diniy-ma'naviy obro'ni ham meros sifatida davom

ettirdilar. Bu — Markaziy Osiyoga xos bo'lgan xojagarchilik institutining o'ziga xos xususiyati edi.

Xo'ja Islomning vorislari — Xo'ja Sa'd (vafoti 1589) va undan keyingi avlodlar — Abdurahimxo'ja, Abdixo'ja, Muhammadtayyibxo'ja, Muhammadyusufxo'jalar — sulolaning siyosiy va iqtisodiy mavqeini yanada mustahkamladilar. Ular davr davomida nafaqat Buxoro, balki Samarqand, Toshkent, Balx kabi yirik shaharlardagi vaqf mulklarini ham o'z tasarrufiga olib, mintaqaviy darajada ta'sir doirasini kengaytirdilar.

P.P.Ivanov o'zining klassik tadqiqotida Jo'ybor xo'jalarining vaqf yerlari, savdo operatsiyalari va xazinasining hajmi jihatidan o'z davrining yirik feodal-tijorat institutiga aylanganini ko'rsatgan. Tadqiqotchining fikricha, bunday miqyosdagi iqtisodiy qudrat ularga nafaqat mamlakat ichkarisida, balki tashqi aloqalarda ham mustaqil subyekt sifatida harakat qilish imkonini bergan.

Abdullaxon II davrida (1583-1598) Jo'ybor xo'jalari xon saroyida beqiyos ta'sirga ega bo'lib, xonning siyosiy qarorlariga ham ta'sir o'tkazgan. Bu mavqe Ashtarxoniylar — jumladan, Imomqulixon (1611-1642) va Abdulazizxon davrida ham saqlanib qoldi. Aynan shu siyosiy-diniy obro' ularga tashqi diplomatiyada ham faol ishtirok etish imkonini berdi.

“Matlab ut-tolibin” muallifi Jo'ybor xo'jalarining “xorijiy mamlakatlar, ayniqsa, Hindiston bilan diplomatik, savdo va madaniy aloqalarda” faol ishtirok etgani haqida bevosita ko'rsatma beradi. Bu ta'rif shuni ko'rsatadiki, muallif o'z davridayoq xo'jalar faoliyatining davlatlararo ahamiyatini alohida ta'kidlashni lozim topgan.

Manbada keltirilgan eng yorqin misollardan biri — Xoja Sa'dning o'g'li Abdurahimxo'janing Ashtarxoniy Imomqulixon davrida Hindistonga rasmiy elchi etib tayinlanishi va u yerda 1628-yilda vafot etganidir. Bu fakt Jo'ybor xo'jalari avlodining nafaqat diniy, balki davlat ahamiyatiga molik diplomatik vazifalarni ham bajarganini ko'rsatadi — ularning mavqei rasmiy xon elchilariga teng keladigan darajada edi. Elchining aynan xo'jalar avlodidan tayinlanishi xonning Jo'ybor xonadoniga nisbatan yuksak ishonchini ham anglatadi.

Ikkinchi muhim yo'nalish — Boburiy hukmdorlar bilan bevosita yozishma va sovg'a almashinuvi edi. Manbada Hindiston podshohi Jaloliddin Muhammad Akbar (1556-1605)ning Xo'ja Sa'dga Peshovar viloyatini niyoz qilgani, biroq farmon yetib kelguncha shayx vafot etgani sababli bu niyoz amalga oshmagani bayon qilinadi. Bu hodisa shunchaki marosimiy emas edi.

Aksincha, u Boburiylar saroyida Jo'ybor xo'jalarining siyosiy vazni qanchalik yuksak baholanganini ko'rsatuvchi dalildir — begona davlat hududida viloyat in'om qilish amaliyoti odatda faqat eng yuksak martabali shaxslarga nisbatan qo'llanilgan. Shuningdek, asarda bir

necha buxorolik shayxlarning Hindistonga safarlari va ularning Boburiy saroyida tantanali kutib olinishi batafsil tasvirlangan.

Mavlono Muhammadyusuf Badaxshoniyni Jo'ybordan Hindistonga yo'l olgani, yo'lda Afg'oniston sarhadida qaroqchilar hujumiga uchragani kabi voqealar — bu yo'nalishning nafaqat rasmiy, balki kundalik amaliy aloqa sifatida ham muntazam bo'lganini ko'rsatadi.

Jo'ybor xo'jalarining Hindiston bilan aloqalari faqat diplomatik-diniy xususiyatda bo'lmay, keng ko'lamli iqtisodiy zaminga ham ega edi. P.P.Ivanov ta'kidlaganidek, Jo'ybor xo'jalari xonadonining boyligi nafaqat vaqf yerlari hisobidan, balki uzoq masofali savdo — jumladan, Hindiston yo'nalishidagi karvon savdosi hisobidan ham shakllangan. Bunday ikki tomonlama — ham diniy, ham tijoriy — faoliyat modelini mintaqaning boshqa xo'jagarchilik sulolalarida kamdan-kam uchratish mumkin.

Manbada xo'jalar xonadonida xizmat qiluvchi "Hindistoniylar" — ya'ni Hindistondan keltirilgan yoki u yerdan asli bo'lgan xizmatkorlar va g'ulomlar haqida ham ma'lumot beriladi. Bu tafsilot xonadonning Hindiston bilan aloqalari nafaqat savdo yoki diplomatiya darajasida, balki kundalik turmush darajasida ham mustahkam bo'lganini ko'rsatadi.

Bundan tashqari, Xo'ja Sa'd va uning vorislari xonadonida doimiy ravishda mehmonxona faoliyat ko'rsatib, u yerga Samarqand, Toshkent, Andijon, Qoshg'ar, Badaxshon, Balx, Xorazm, Xuroson qatori Hindistondan ham mehmonlar kelib turgan. Bu — Jo'ybor xonadonining Markaziy Osiyo va Hindiston o'rtasidagi savdo-elchilik yo'llarida muhim tayanch nuqta vazifasini ham bajarganini ko'rsatadi.

Skott Levining tadqiqotiga ko'ra, XVI-XVII asrlarda hind savdogarlari diasporasi Markaziy Osiyoning yirik shaharlarida, jumladan Buxoroda ham faol bo'lgan, bu esa Jo'ybor xo'jalarining iqtisodiy aloqalarini yanada mustahkam zaminga qo'ygan.

Jo'ybor xo'jalarining Hindiston bilan aloqalari adabiy-madaniy sohada ham o'z aksini topgan. Akbar saroyining mashhur madhiyachi shoiri Shayx Fayziy Xo'ja Sa'd sha'niga maxsus qasida bitgani "Matlab ut-tolibin"da keltirilgan. Bunday adabiy ehtirom odatda faqat eng yuksak martabali shaxslarga nisbatan ko'rsatilgan.

Mutribiy Samarqandiyning "Hind safari" xotiralarida esa Hindiston podshohi Nuriddin Jahongir (1605-1627)ning Jo'ybor xo'jalari bilan bog'liq shoir Yusufxoja she'rlariga yuksak baho bergani qayd etilgan. Bu ma'lumot ikki saroyning adabiy doiralari o'rtasida ham o'zaro tanishuv va baholash jarayoni borligidan dalolat beradi.

Bu ma'lumotning ishonchliligini B.A.Ahmedovning Markaziy Osiyo va Hindiston xalqlari madaniy aloqalari tarixiga bag'ishlangan maxsus tadqiqoti ham tasdiqlaydi. Tadqiqotchi bunday aloqalarning tizimli va uzoq davom etgan xarakterga ega bo'lganini alohida ta'kidlaydi.

Jahongir davrining adabiy muhiti haqida fors tilidagi “Nusxai zeboi Jahongir” tazkirasida ham qimmatli ma’lumotlar mavjud, ular Boburiylar saroyi adabiy hayotining Markaziy Osiyolik ijodkorlar bilan aloqadorligini to’ldiradi.

Shu tariqa, Jo’ybor xo’jalari faoliyati orqali Buxoro va Hindiston o’rtasida nafaqat siyosiy-diplomatik, balki adabiy-ilmiy almashinuv ham amalga oshgan.

O’tkazilgan tahlil shuni ko’rsatadiki, Jo’ybor xo’jalari XVI-XVII asrlarda Buxoro xonligi va Boburiylar Hindistoni o’rtasidagi munosabatlarda faqat diniy obro’ sifatidagina emas, balki to’laqonli siyosiy-diplomatik va iqtisodiy subyekt sifatida ham faoliyat yuritgan. Abdurahimxo’janing rasmiy elchi maqomida Hindistonga yuborilishi, Akbar va Jahongir bilan yozishmalar va sovg’a almashinuvi, savdo-karvon aloqalari hamda adabiy-madaniy munosabatlar — bularning barchasi Jo’ybor xo’jalari faoliyatining davlatlararo diplomatiya tarixida alohida va mustaqil yo’nalish sifatida o’rganilishi lozimligini ko’rsatadi. Ushbu masala kelgusida arxiv hujjatlari va boshqa qo’lyozma manbalar asosida yanada chuqurroq tadqiq etilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Ahmedov B.A. Mugribiy va uning antologiyasi // O’rta Osiyo va Hindiston xalqlari madaniy aloqalari tarixidan. – Toshkent: Fan, 1986.
2. Burton A. The Bukharans: A Dynastic, Diplomatic and Commercial History, 1550–1702. – Richmond: Curzon Press, 1997.
3. Иванов П.П. Хозяйство джуйбарских шейхов: К истории феодального землевладения в Средней Азии в XVI–XVII вв. – М.–Л.: Изд-во АН СССР, 1954.
4. Karimov G’., Mirkomilov E. (tarj.) Muhammad Tolib ibn Tojiddin Hasanxoja al-Husayniy as-Siddiqiy. Matlab ut-tolibin. – Toshkent: Movarounnahr, 2016. – 384 b.
5. Levi S.C. The Indian Diaspora in Central Asia and Its Trade, 1550–1900. – Leiden: Brill, 2002.
6. Levi S.C. (ed.) India and Central Asia: Commerce and Culture, 1500–1800. – New Delhi: Oxford University Press, 2007.
7. McChesney R.D. Central Asia: Foundations of Change. – Princeton: Darwin Press, 1996.
8. Muhammad Yusuf Munshiy. Tarixi Muqimxoniy.
9. Muhammadyor ibn Arab Qatag’on. Musaxxiril bilod (Mamlakatlarning egallanishi) / Fors tilidan tarj. I.Bekjonov. – Toshkent, 2009.
10. Mutribiy Samarqandiy. Hind safari / Fors tilidan I.Bekjon tarjimasi. – Toshkent, 2005.

11. Nizamutdinov I. O'rta Osiyo–Hindiston munosabatlari tarixidan. – Toshkent: Fan, 1969.